

**“O‘zbekiston – 2030 strategiyasining 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da  
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida amalga oshirishga oid  
CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
<b>I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQRARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH YO‘NALISHI BO‘YICHA</b>						
<b>Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish</b>						
1.	Kombinatda “ <b>Davlat – xalq xizmatchisi</b> ” tamoyili asosida Jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilishni tashkillashtirish, bo‘linmalarda sayyor qabullarni tashkil qilish.	1. “NKMK“ AJ rahbariyatining 2024-yilda shaxsiy masalalar bo‘yicha qabul va sayyor qabullarini o‘tkazish bo‘yicha jadval-grafik tasdiqlanadi. 2. Tasdiqlangan jadval-grafik asosida barcha bo‘linmalarda qabullar tashkil etiladi.	Har bir o‘tkazilgan sayyor qabul natijalari yuzasidan NKMK rahbariyatiga yozma ravishda ma’lumot taqdim etiladi	Jadval asosida	-	Q. Taparov, I. Raxmatov, Sh. Idiyev
<b>25-maqsad: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash</b>						
2.	Xotin-qizlar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratish, gender tengligini ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish.	1. NKMK bo‘linmalarida xotin-qizlar faolligi va gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. 2. Davlat mukofotlari va kombinat mukofotlariga erishgan ayollar ishtirokida jamoalarda uchrashuvlar tashkil etish. 3. Yirik bo‘linmalarda xotin-qizlarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganish.	Reja ishlab chiqiladi  Reja asosida  Natijalar bo‘yicha rahbariyatga ma’lumotnoma kiritiladi.	2024-yil fevral   Reja asosida	-	Q. Taparov, S. Nazarova, O.Rahmatov, A.Tursunov, O.Temirov

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
3.	Kombinatda 15-may – <b>“Xalqaro oila kuni”</b> ni keng nishonlash va <b>“Yangi O‘zbekistonning ibratli oilasi”</b> ko‘rik-tanlovini o‘tkazish.	1. Bu sanani nishonlash va tanlovni o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi, ko‘rik-tanlov Nizomi ishlab chiqiladi. 2. Tanlovda g‘olib va sovrindor deb topilgan jamoa, ishchi-xodimlar munosib rag‘batlantiriladi.	Chora-tadbirlar dasturi, tanlov Nizomi ishlab chiqiladi	2024-yil aprel 2024-yil may	-	S. Nazarova, I. Raxmatov, X. Raupov, S. Radjabov
4.	Kombinatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan targ‘ibot tadbirlari o‘tkazish	1. Bo‘linmalarda targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha reja ishlab chiqiladi. 2. Targ‘ibot tadbirlariga hamkorlik asosida chetdan mas‘ullar, ma‘ruzachilar jalb qilinadi.	Chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi	Har chorakda	-	S. Nazarova, X. Raupov, S. Radjabov, S. Boboyorova
<b>29-maqсад: Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularni zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish</b>						
5.	Navbahor kasb-hunar maktabining bo‘sh maydon (xona)larida qurilish, konchilik, kimyo, elektrotexnika, muhandislik-kommunikatsiya yo‘nalishlari, tikuvchilik, yengil sanoat va boshqa yo‘nalishlar, qishloq xo‘jaligi, tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va servis sohalarida kasb-hunarga o‘qitish, yetuk kadrlarni tayyorlash va ishlab chiqarish amaliyoti (dual)ni tashkillashtirish.	1. NKMK va kasb-hunar maktabi bilan hamkorlikda hujjatlar ishlab chiqiladi. 2. Kasbga ega bo‘lmagan mahalliy yoshlar ro‘yxati shakllantirilib, o‘quv dasturlari asosida o‘qishlar tashkil etiladi va yoshlar kasbga o‘rgatiladi.	Tasdiqlangan dastur asosida	2024-yil davomida	Reja smeta hujjatlari asosida	Q. Taparov, J. Xayitov, O. Raxmatov, A. Rizayev, B. Mardonov
6.	Rossiya Federatsiyasining Kislovodsk shahridagi “O‘zbekiston” sanatoriyasida “Dam olish-davolanish-bilim olish-malaka oshirish” loyihasini amalga oshirish.	1. “NKMK” AJ ishchi-xodimlari, mehnat faxriylari, shu jumladan, kombinatda zararli sharoitlarda ishlagan, hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘lgan, davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar ro‘yxati shakllantiriladi.	Tasdiqlangan ro‘yxat asosida	2024-yil davomida	<b>850.0</b> “NKMK” AJ mablag‘lari	Q. Taparov, I. Raxmatov, O. Raxmatov, B. Saidov, A. Rizayev

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.soʻm)	Ijrochilar
		2.Roʻyxat asosida yil davomida ularning dam olishi, davolanishi, bilim olishi va malaka oshirishi taʼminlanadi.				
7.	Oliy taʼlim muassasalarining sirtqi boʻlimiga oʻqishga kirish uchun yosh, istiqbolli xodimlarga tavsiyanomalar berishni komission tartibda koʻrib chiqib, kontrakt toʻlovlarini tavsiyanomaga asosan toʻlab berish.	1. Mazkur jarayonni tartibga soluvchi ichki idoraviy hujjat ishlab chiqish lozim boʻladi. 2.Boʻlinmalar eng munosib nomzodlarni tanlaydi, saralaydi va NKMK boshqarmasiga (Markaziy komissiyaga) tavsiya etadi. 2.Markaziy komissiya tomonidan nomzodlar adolatlik tamoyili asosida koʻrib chiqiladi va ular orasidan eng munosib nomzodlarga tavsiya beriladi. 3.Tavsiya etilgan nomzodlar oliy oʻquv yurtlariga qabul qilingandan soʻng ular kontrakti toʻlab beriladi.	Buyruq asosida amalga oshiriladi	2024-yil II chorakda  2024-yil III-IV chorakda	<b>5 440,0</b> “NKMK” AJ mablagʻlari	Q. Taparov, J.Xasanov, O. Raxmatov, A. Rizayev, boʻlinmalar rahbarlari
8.	Kombinatda faoliyat yuritayotgan oʻrta va quyi boʻgʻin rahbar va xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash.	1. Rahbar-xodimlar, mutaxassislar va ishchi-xizmatchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash boʻyicha oʻqitish reja-grafigi ishlab chiqiladi. 2.Reja grafik asosida malaka oshirish va qayta tayyorlashga jalb etilganlar dasturlar asosida oʻqitiladi.	Tasdiqlangan yillik reja asosida	2024-yil davomida	<b>12 000,0</b> “NKMK” AJ mablagʻlari	Q. Taparov, J.Xasanov, O. Raxmatov, A. Rizayev, boʻlinmalar rahbarlari, Oʻquv markazlari direktorlari
9.	Kombinat ehtiyoji uchun Navoiy shahridagi “Ishga marhamat” Monomarkazida yoshlarni kerakli mutaxassisliklarga oʻqitish va ishga qabul qilish.	1.Boʻlinmalarda qaysi mutaxassisliklarga talab borligi oʻrganib chiqiladi, ehtiyoj aniqlanadi. 2.Monomarkaz bilan birgalikda yoʻnalishlar boʻyicha kadrlar tayyorlash rejasi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. 3.Talabga koʻra, Monomarkazni tugatgan yosh mutaxassislarni	2024-yil fevral-dekabr	NKMK hisobidan	<b>200,0</b> “NKMK” AJ mablagʻlari	Q. Taparov, O. Raxmatov, A. Rizayev

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.soʻm)	Ijrochilar
		boʻlinmalarga ishga qabul qilish choralari koʻriladi.				
<b>31-maqсад: Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy salohiyatini ragʻbatlantirish</b>						
10.	Yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, intellektual salohiyatini oshirish, iqtidor va isteʼdod egalarining gʻoya va tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash.	“Yilning eng yaxshi yosh mutaxassisi”, “Yilning eng mohir yosh kasb egasi”, “Yilning eng yaxshi boshlangʻich tashkilot yetakchisi”, “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi” tanlovlari va “Zakovat” intellektual oʻyini oʻtkaziladi. Gʻolib va sovrindorlar, faol qatnashgan yoshlar ragʻbatlantiriladi.	Nizomlar, chora-tadbirlar dasturlari asosida	Fevral  Tasdiqlangan dastur muddatlariga asosida	<b>430,0</b> “NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablagʻlari	Q.Taparov, I.Raxmatov, J.Xasanov, K.Gafurov, S.Radjabov, X.Raupov, boʻlinmalar rahbarlari
11.	Yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish, maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.	1. Yoshlarga oid davlat siyosatini 2024-yilda NKMKda amalga oshirish Dasturi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi; 2. Dasturga asosan besh muhim tashabbus, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar tashkil etiladi. 3.Gʻolib va sovrindorlar, faol qatnashgan yoshlar ragʻbatlantiriladi.	Dastur  Nizomlar, chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqiladi	Fevral  Dastur muddatlariga asosan	<b>440,0</b> “NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablagʻlari	Q.Taparov, S. Radjabov, I.Raxmatov, J.Xasanov, X. Raupov, boʻlinmalar rahbarlari
12.	Kombinat ishchi-xodimlari, ularning oila aʼzolari va pensionerlar oʻrtasida <b>ommaviy sport tadbirlarini</b> tashkil etish.	1. Barcha boʻlinmalarda ishchi-xodimlar oʻrtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, musobaqalar tashkil etish boʻyicha yillik rejalar ishlab chiqish. 2. Alohida dastur asosida pensionerlar oʻrtasida sport-sogʻlomlashtirish tadbirlari, musobaqlar oʻtkaziladi. 3. Musobaqalarda ijobiy natijalarga erishgan ishchi-xodimlar va pensionerlar ragʻbatlantiriladi.	Tasdiqlangan tadbirlar rejasi asosida amalga oshiriladi	2024-yil davomida jadval asosida	<b>150,0</b> “NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablagʻlari	Q. Taparov, I. Raxmatov, boʻlinmalar rahbarlari

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.soʻm)	Ijrochilar
13.	Kombinat ishchi-xodimlari va NDKTU talabalarining ishlab chiqarish obyektlariga ekskursiyalarini tashkil etish.	1. Kombinat maʼmuriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qoʻshma qarori qabul qilinadi. 2. Tasdiqlangan reja-jadvali asosida <b>400 nafar</b> kishi ekskursiyalar tashkil etiladi.	Qoʻshma qaror asosida	2024-yil davomida jadval asosida	<b>50,0</b> “NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablagʻlari	Q.Taparov, J.Xasanov, I. Raxmatov, S. Radjabov, R. Ergashev, B.Mardonov, boʻlinma rahbarlari
14.	NKMK ishlaydigan pensionerlariga Jamoa shartnomasi asosida qishloq xoʻjalik mahsulotlarini sotib olishlari uchun bir martalik mablagʻ ajratish.	<b>8500 nafar</b> kombinat pensionerlariga mablagʻ ajratiladi.	Arizasiga asosan	Yil davomida	<b>6 000,0</b> “NKMK” AJ mablagʻlari	J.Xasanov, O. Raxmatov, I. Raxmatov, J. Novikova, boʻlinmalar rahbarlari
15.	Jamoa shartnomasiga binoan ishlaydigan pensionerlar sogʻligʻini yaxshilash uchun sanatoriy-profilaktoriyalarga imtiyozli yoʻllanmalar ajratish.	Jamoa shartnomasining 14-ilovasiga asosan yil davomida <b>800 nafar</b> pensionerlarga yoʻllanmalar ajratiladi.	Pensionerlarning arizasiga asosan beriladi	Yil davomida	<b>3 800,0</b> “NKMK” AJ mablagʻlari	I. Raxmatov, J.Xasanov, Kasaba uyushmalari
16.	NKMK kam taʼminlangan, yordamga muhtoj ishchi-xodimlari va kombinatning yolgʻiz pensionerlariga moddiy yordam ajratish.	Kasaba uyushma Kengashining “Birdamlilik” fondi mablagʻlari hisobidan <b>600 nafar ishchi-xodimlar va pensionerlarga moddiy yordam</b> ajratiladi.	Murojaatchining arizasi va Rayosat qaroriga asosan ajratiladi	Yil davomida	<b>1 200,0</b> Kasaba uyushmasi mablagʻlari	I. Raxmatov, Kasaba uyushma qoʻmitalari raislari
17.	Respublikamizning chekka va choʻl hududlarida yashovchi <b>1000 nafardan</b> ortiq kam taʼminlangan oila farzandlari va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilari uchun bolalar sogʻlomlashtirish oromgohlariga imtiyozli yoʻllanmalar ajratish.	1. Respublika Muvofiqlash-tiruvchi guruh raisi tomonidan imzolangan bayonnomaga asosan. 2. Kombinat maʼmuriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qoʻshma qarori qabul qilinadi va shu asosida yoʻllanmalar ajratiladi.	Kelib tushgan murojaatlar asosida	2024-yil iyun-avgust	<b>2 800,0</b> “NKMK” AJ mablagʻlari	I. Raxmatov, Q. Taparov, J. Xasanov

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.soʻm)	Ijrochilar
18.	Kam taʼminlangan ishchi-xodimlar oilasiga va ehtiyojmand yolgʻiz pensionerlar uchun oziq-ovqat mahsulotlari toʻplamini ajratish.	1. Bayramlar arafasida kombinat maʼmuriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qoʻshma qarori asosida <b>1 200 dan</b> ortiq oziq-ovqat toʻplami ajratiladi. 2. Kombinatsiyalar volontyor yoshlari tomonidan ajratilgan oziq-ovqat toʻplamlari tarqatiladi.	Boʻlinmalar kasaba uyushmalari tomonidan shakllantirilgan roʻyxat asosida	Bayramlar arafasida	<b>650,0</b> “NKMK” AJ mablagʻlari va Kasaba uyushmasi mablagʻlari	Q. Taparov, I. Raxmatov, J. Xasanov, B. Saidov
<b>38-maqсад: Jamiyatda ijtimoiy-maʼnaviy muhit barqarorligini taʼminlash</b>						
19.	Targʻibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning <b>taʼsirchan uslublarini ishlab chiqish</b> hamda ularni oʻz vaqtida amalga oshirish choralarini koʻrish.	1. Kombinatsiyalarda maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni tashkil etish boʻyicha Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi bilan kelishilgan “Yoʻl xarita” ishlab chiqish va tasdiqlanadi. 2. “Yoʻl xarita”da belgilangan tadbirlarning toʻliq bajarilishini taʼminlanadi.	Tadbirlar, davra suhbatlari	2024-yil fevral	-	X. Raupov, S. Radjabov
20.	Kombinat ishchi-xodimlari, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida <b>kitobxonlikni</b> targʻib qilish.	1. Ishchi-xodimlar, ayniqsa, yoshlarni bilim olishga va kitobxon oʻiqshga boʻlgan qiziqishini ragʻbatlantirish maqsadida boʻlinmalarda <b>“Kitob – koʻngil bulogʻi”</b> tanlovi oʻtkaziladi.	Nizomlar, chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqiladi	2024-yil davomida	-	X. Raupov, S. Radjabov, Boʻlinmalar rahbarlari
21.	Yosh oilalar, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni maʼnaviy va moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash, volontyorlik aksiyalarini tashkil etish.	1. “Ezgulik yoʻlida birlashaylik”, “Fidoyi yoshlar” aksiyalari, “Ezgulik albatta qaytadi” qon topshirish aksiyalarida kombinat xodimlari, shu jumladan yoshlarning faol ishtirokini taʼminlash.	Nizomlar asosida olib boriladi	har oyda	-	S. Radjabov, I. Raxmatov, B. Saidov
<b>II. BARQAROR IQTOSIDIY OʻSISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TAʼMINLASH YOʻNALISHIDA</b>						

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
<b>48-maqсад: Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish</b>						
22.	<p><b>Respublika davlat dasturi. Farmonning 2-ilovasi 13-band.</b></p> <p>“Navoiy KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish” investitsiya loyihasini amalga oshirish.</p>	<p>1. “Navoiy KMK” AJ mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini barqarorlashtirish maqsadida kerakli asbob-uskuna va texnikalarni xarid qilish shartnomalarini imzolanadi.</p> <p>2. Tegishli ekspertiza jarayonlarini o‘tkazish va uskunalarni bosqichma-bosqich ishlab chiqarishga joriy etiladi. Bunda, xorijiy tijorat banklari kreditlarini jalb qilinadi.</p>	Tijorat bank kreditlari asosida	2024-yil sentyabr 2024-2026-yillarda	<b>109,7 mln.doll</b>	<b><u>M. Amonov,</u></b> F. Baxronov, M. Alkarov, S. Bakoyev, R. Ergashev
23.	Zarmitan konining quyi gorizontlarini o‘zlashtirish (0.00 m. gor.gacha) loyihasi doirasida “Zarmitan” koni “Skipli” sanoat maydonida 250 o‘rinli maishiy bino va 80 o‘rinli oshxona binosini qurib foydalanishga topshirish.	1. “Zarmitan” koni hududida 250 o‘rinli maishiy bino va 80 o‘rinli oshxona qurilishini yakunlash ishlari amalga oshiriladi va foydalanishga topshirish choralari ko‘riladi.	Tasdiqlangan reja-smeta asosida	2024-yil may	<b>13 354,5</b> “NKMK” mablag‘lari	<b><u>F. Baxronov,</u></b> M. Alkarov, O. Xasanov, T.Yuldashev
24.	Samarqand viloyati, Qo‘shrabot tumani, Zarkent qo‘rg‘onidagi 2-sonli 4 qavatli 32 xonadonli turar-joy binosini qurib foydalanishga topshirish.	1. Zarkent qo‘rg‘onidagi 32 xonadonli turar-joy binosi qurilishini yakunlash ishlari amalga oshiriladi va foydalanishga topshirish choralari ko‘riladi.	Tasdiqlangan reja-smeta asosida	2024-yil sentabr	<b>8 786,7</b> “NKMK” mablag‘lari	<b><u>F. Baxronov,</u></b> M. Alkarov, O. Xasanov, T.Yuldashev
<b>58-maqсад: O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlarni yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish</b>						

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
25.	“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” loyihasi va “Moziyga sayohat” dasturi asosida mamlakatimizdagi tarixiy shaharlarga <b>6 ming nafarga</b> yaqin kombinat ishchi-xodimlari uchun ichki va ziyorat turizmini hamda teatr tomoshalariga kirishni tashkil etish.	1. Kombinatsion ma‘muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi qo‘shma qarori va reja-grafigi ishlab chiqildi. 2. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, SHahrisabz va boshqa tarixiy shaharlarga sayohatlar tashil etiladi.	Tasdiqlangan taqvim-reja asosida	Har oyda	<b>3500,0</b> “NKMK” va Kasaba uyushmasi mablag‘lari	Q.Taparov, J.Xasanov, I. Raxmatov, R. Ergashev, S. Radjabov, S.Nazarova
<b>61-maqsad: Infratuzulma loyihalarini barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbaalari bilan ta‘minlash</b>						
26.	<b>Respublika davlat dasturi. Farmonning 94-band.</b> Respublika aholisining ichimlik suv ta‘minoti darajasini oshirish.	1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlaridagi ichimlik suvi og‘ir bo‘lgan mahallalar ro‘yxatini shakllantiriladi. 2. Ijtimoiy buyurtmalar asosida 2024-yilda ichimlik suvi og‘ir bo‘lgan 50 ta mahallani (tasdiqlangan) ichimlik suvi bilan ta‘minlanadi.	Amaliy chora-tadbirlar asosida	2024-yil dekabr	<b>3 000,0</b> “NKMK” mablag‘lari	Q.G‘afurov, U.Sharafutdinov
27.	Respublika doirasida har yili o‘tkaziladigan hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida faol ishtirok etish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish.	1.Yarmarkalarga kombinat stendi tayyorlanadi. 2.Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlik ko‘lamini kengaytirish choralari ko‘riladi.	Hukumat qarori asosida tasdiqlangan jadval bo‘yicha	2024-yil mobaynida	<b>500,0</b> “NKMK” AJ mablag‘lari	M.Amonov, L.Beknazarov, E.Danilina, J.Xayitov, Tarkibiy bo‘linmalar
28.	Mahalliyashtirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar turlarini ko‘paytirish.	1.Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar o‘zlashtiriladi va mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga quyiladi. 2. Sanoat kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hisobiga mahalliy korxonalaridan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar xarid qilinadi. 3. Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan 183 ta loyiha bajarilishi	Loyihalarni amalga oshirishning tarmoq jadvallari asosida	2024-yil mobaynida	Xarajatlar asosiy faoliyat va Investitsiya dasturi doirasida nazarda tutilgan xarajatlar tarkibiga kiritilgan	M.Amonov, E.Danilina, Tarkibiy bo‘linmalar



T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.soʻm)	Ijrochilar
		taʼminlanadi. 4. Kombinat ehtiyoji uchun mahsulot yetkazib beruvchi mahalliy korxonalar bilan hamkorlik shartnomalari tuziladi.				
29.	2024-yilda moʻljallangan Investitsiya dasturiga koʻra kombinatda yangi loyihalarni amalga oshirish va yangi ishlab chiqarish obʻektlarining ishga tushirilishi hisobiga 490 ta yangi ish oʻrinlari yaratish va malakali ishchi-xodimlar bilan taʼminlash.	1. Investitsiya dasturi asosida yangi loyihalar ishga tushiriladi va buning hisobiga 490 ta yangi ish oʻmi yaratiladi. 2. Ish oʻrinlariga oliy taʼlim, kasb-hunar taʼlimi muassasalari bitiruvchilari, ishsiz fuqarolar, ijtimoiy himoyaga muhtoj, shu bilan birga, ish topishda teng raqobatlasha olmaydigan, kasbga ega boʻlmagan ishsiz fuqarolari kombinat oʻquv markazlarida kasbga oʻqitish orqali ish bilan taʼminlanadi.	Tasdiqlangan reja asosida	Yil mobaynida	-	F.Baxranov, Q.Taparov, N.Roʻziyev, M.Alqarov, O.Raxmatov, A.Rizayev, Oʻquv markazlari direktorlari

### III. SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH

#### 67-maqsad: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyahasini kengaytirish

30.	“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kombinat tomonidan joriy yilning bahor va kuz mavsumlarida 370 000 ta manzarali va mevali daraxt hamda buta koʻchatlari ekish orqali dastur ijrosida faol ishtirok etish.	1. Manzarali va mevali daraxt hamda, buta koʻchatlarini ekish boʻyicha taqsimot rejasi tasdiqlanadi. 2. Reja asosida boʻlinmalarda belgilangan muddatlarda koʻchat ekish ishlari olib boriladi.	Belgilangan “Dolzarb 40-kunlik”da hasharlar tashkil etish orqali	2024-yil mart-aprel, oktyabr-dekabr	<b>1 500,0</b> “NKMK” AJ mablagʻlari	Q. Taparov, I. Raxmatov, N. Djulibekov, J. Xasanov, Sh. Ortikova, B. Saidov, boʻlinmalar rahbarlari
-----	--	--	--	-------------------------------------	---	---

#### 73-maqsad: Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash boʻyicha keskin choralar koʻrish

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.soʻm)	Ijrochilar
31.	Atrof muhitga taʼsir xavfi yuqori boʻlgan korxonalarining atmosfera havosini ustuvor ifloslantirish manbalaridan namunalar olish va tahlil qilish boʻyicha avtomatik stansiyalar oʻrnatishni tashkil etish.	1. Tasdiqlangan tarmoq jadvali asosida boʻlinmalarga avtomatik stansiyalar oʻrnatiladi. 2. Atmosfera havosini ifloslantirish manbalaridan namunalar olish, tahlil qilish va aniqlangan holatlarni bartaraf etib borish choralari koʻriladi.	Tasdiqlangan reja asosida	2024-yil 4-chorakda	5 750,0 “NKMK” AJ mablagʻlari	J.Xasanov, N.Roʻziyev, M.Amonov, V.Pulatov, Sh.Ortiqova, boʻlinmalar raxbarlari
<b>VI. “XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT” TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH YOʻNALISHIDA</b>						
<b>100-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalarini rivojlantirish</b>						
34.	Yurtimizda <b>millatlararo totuvlik, diniy bagʻrikenglik va xalqlararo doʻstlikni targʻib etuvchi</b> madaniy-maʼrifiy tadbirlarni oʻtkazish.	1. 30-iyul – Xalqlar doʻstligi kuni munosabati bilan <b>“Doʻstlik” festivalini</b> tashkil etish va oʻtkaziladi. 2. Kombinat va uning boʻlinmalarida turli millat vakillari oʻrtasida hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. 3. Tadbirlarda faol ishtirok etganlarga sovgʻalar beriladi. 4. 16-noyabr – <b>Xalqaro bagʻrikenglik kuniga</b> bagʻishlab boʻlinmalarda <b>“Bagʻrikenglik” haftaligi</b> oʻtkaziladi.	Har bir boʻlinmada maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar tashkil etiladi	2024-yil aprel  2024-yil 28-29-30-31-iyul  2024-yil oktabr	-	I. Raxmatov, X. Raupov, S. Radjabov, boʻlinma rahbarlari
<b>V. QONUN USTUVORLIGINI TAʼMINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH YOʻNALISHIDA</b>						
<b>89-maqsad: Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish</b>						

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.soʻm)	Ijrochilar
35.	Kombinat boʻlinmalari ishchi-xodimlari oʻrtasida Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq qoidalari va boshqa ichki idoraviy hujjatlarni targʻib qilish va oʻquv seminar mashgʻulotlarini tashkil etish. Xodimlar oʻrtasida mazkur hujjatlar ijrosi yuzasidan soʻrovnoma oʻtkazish.	<p>1. Kombinat ishchi-xodimlari oʻrtasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi.</p> <p>2. Barcha boʻlinma ishchi-xodimlarining huquqiy bilim va ongini yuksaltirish boʻyicha keng qamrovli targʻibot tadbirlari, davra suhbatlari va seminarlar oʻtkaziladi.</p>	Chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi	<p>2024-yil fevral</p> <p>2024-yil davomida</p>	-	Q. Taparov, R. Avezov, X. Raupov
35.	Jamiyat va uning boʻlinmalarida Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralarini koʻrish va <b>korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olishning</b> samarali mexanizmlarini yaratish.	<p>1. Adliya vazirligidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan roʻyxatga olingan Uslubiyot (<i>korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash</i>) asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini koʻrish, profilaktika qilish va ularning oldini olish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.</p>	Jamiyat faoliyatining funksiyalari baholanadi, natijasi boʻyicha xavf-xatarlar xaritasi va bartaraf etish dasturi ishlab chiqiladi	2024-yil yanvar-fevral oylarida	-	R. Avezov
36.	<p><b>Respublika davlat dasturi 4-boʻlim 38-band.</b></p> <p>Komplayens xizmati xodimlarini malakasini oshirish.</p>	<p>1. Tegishli hujjatlar ishlab chiqiladi va xarid qilish shartnomalari imzolanadi.</p> <p>2. ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari” xalqaro standarti talablaridan kelib chiqqan holda komplayens xizmati xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yoʻnalishida xalqaro seminar, trening va malaka oshirish kurslarida oʻqitiladi.</p>	Texnik shart ishlab chiqish, shartnoma tuzish	2024-yil davomida	<b>108,0</b> NKMK” AJ mablagʻlari	Q. Taparov, R. Avezov, M. Amonov, A. Rizayev

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.soʻm)	Ijrochilar
37.	Ochiq maʼlumotlar sifatida joylashtirilishi kerak boʻlgan <b>ijtimoiy ahamiyatga molik maʼlumotlarni jamiyatning</b> veb-saytiga joylashtirib borilishini taʼminlash.	1. Rasmiy veb-sayti hamda ochiq maʼlumotlar portalida boʻsh ish oʻrinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qoʻyiladigan talablar, taqdim qilinishi lozim boʻlgan hujjatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni muntazam kiritib borish tizimi joriy etiladi.	Har chorak yakuni buyicha	2024-yil davomida	-	X. Raupov, B. Davlatov, R. Avezov, O. Raxmatov, Sh. Idiyev
<b>DAVLAT DASTURINI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA IJTIMOY TARMOQLAR ORQALI KENG YORITIB BORISH YOʻNALISHIDA</b>						
38.	Davlat dasturining kombinatdagi ijrosi boʻyicha “Konchilar hayoti” gazetasida muntazam materiallar berib borish tizimini yoʻlga qoʻyish.	1. Davlat dasturini “Konchilar hayoti” gazetasida doimiy va tizimli yoritib borish uchun alohida media-rejasi ishlab chiqiladi. 2. Gazetada davlat dasturi ijrosi boʻyicha rukn tashkil etiladi va shu asosida yil davomida muntazam materiallar berib boriladi.	Maqola, xabar, suhbat-intervyu, fotoetyud tarzida	Har oyda	-	N. Sadriddinov, tahririyat muxbirlari
39.	Davlat dasturining kombinatdagi ijrosini respublika va mahalliy OAVlarda tizimli yoritib borilishini yoʻlga qoʻyish.	1. Davlat dasturini respublika va OAVlarida doimiy va tizimli yoritib borish amalga oshiriladi. 2. Davlat dasturining ijrosi boʻyicha matbuot anjumani, brifinglar tashkil qilinadi va OAV orqali aholi xabardor etib boriladi.	Matbuot anjumani, maqola, xabar, suhbat-intervyu tarzida	Har chorak yakuni bilan	-	X. Raupov, A. Joʻrayev
40.	Davlat dasturi ijrosi boʻyicha videorolik, infografika tayyorlash va ularni kombinat rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritib borish.	Yil davomida videorolik va infografikalar tayyorlash yuzasidan reja ishlab chiqiladi, shu asosida ular tayyorlanadi hamda kombinat sayti, ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari va boshqa axborot manbaalarida tizimli yoritib boriladi.	Kombinat dasturining ijrosi boʻyicha yarim yillik va yillik infografika asosida	Har chorakda	-	X. Raupov, F. Norqulov

*Izoh:*

*2024-yilda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid chora-tadbirlar Dasturi tadbirlarini amalga oshirishning jami xarajatlari (dastlabki hisob-kitoblarga asosan)*

***70 509,2 mln so‘m va 109,7 mln AQSh dollarini tashkil qiladi.***

